

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 RAQAMLI KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

RASULOVA MATLUBA ABDIMO‘MIN QIZI

**MUSTAQILLIK YILLARIDA QASHQADARYODA TURIZM
SOHASINING SHAKLLANISHI HAMDA RIVOJLANISHI:
ISTIQBOLLAR VA MUAMMOLAR**

07.00.01. – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation

Rasulova Matluba Abdimo‘min qizi

Mustaqillik yillarida Qashqadaryoda turizm sohasining shakllanishi hamda rivojlanishi: istiqbollar va muammolar 5

Расулова Матлуба Абдимумин кизи

Формирование и развитие туристической сферы Кашкадарьи в годы независимости: перспективы и проблемы..... 27

Rasulova Matluba Abdimumin kizi

Formation and development of the tourism sector in Kashkadarya during the years of independence: prospects and problems..... 53

E‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of publications..... 58

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 RAQAMLI KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

RASULOVA MATLUBA ABDIMO‘MIN QIZI

**MUSTAQILLIK YILLARIDA QASHQADARYODA TURIZM
SOHASINING SHAKLLANISHI HAMDA RIVOJLANISHI:
ISTIQBOLLAR VA MUAMMOLAR**

07.00.01. – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2025

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B 2023.1.PhD/Tar.1338 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.qarshidu.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xasanov Akram Muminovich

tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xushvaqov Nabi Olimovich

tarix fanlari doktori

Safarov Soib Berdiyevich

tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05-raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "_____" soat ____ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 180119, Qarshi sh., Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 221-21-04, faks: (+998 75) 220-02-10, e-mail: kasu_info@edu.uz). Qarshi davlat universiteti.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____-raqam bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 180119, Qarshi sh., Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 221-21-04).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "_____" kuni tarqatildi
(2025-yil "_____" dagi ____-raqamli reestr bayonnomasi).

B.J. Eshov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

N.N. Rajabova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.n., dotsent

Y.A. Ergasheva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Globallashuv jarayonlari jadal tus olib borayotgan bir sharoitda turizm sohasi milliy iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri sifatida alohida e'tiborni talab qilmoqda. Turizmning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy ahamiyati, uning xalqaro hamkorlikni rivojlantirishdagi o'rnini hamda milliy imijni shakllantirishdagi strategik vazifalari ushbu sohada izchil islohotlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, Butunjahon turistik tashkiloti (UNWTO) tomonidan ekoturizm, tog'chang'i turizmi, ekstremal, ziyorat va gastronomik turizm kabi zamonaviy yo'nalishlarni barqaror rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, BMTning YUNESKO va UNWTO kabi xalqaro institutlari turizmning ichki va tashqi ko'rinishlarini rivojlantirishni mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyoti va madaniyatlararo integratsiyaning muhim omili sifatida baholamoqda.

Dunyoning yetakchi davlatlaridagi ilmiy-tadqiqot institutlari va tahliliy markazlarda turizm sohasini barqaror rivojlantirish, tarmoqdagi tizimli muammolarni aniqlash hamda istiqbolli yo'nalishlarni belgilashga qaratilgan keng ko'lamli fundamental va amaliy tadqiqotlar izchil olib borilmoqda. Tadqiqotlar, avvalo, ichki va tashqi turizm oqimlarining tarkibiy xususiyatlari, ziyorat va tarixiy-madaniy turizmning merosni saqlash bilan uyg'unlashuvi, ekoturizm va tabiatga asoslangan turizmning tashuvchanlik quvvati va ekologik izini baholash, shuningdek, ekoparklar hamda eko-agroturistik markazlar tarmog'ini kengaytirishning iqtisodiy samaradorligini o'lchashga yo'naltirilgan. Shu bilan birga, bir va ko'p kunlik marshrutlar bo'yicha destinatsiya boshqaruvi, logistik rejalashtirish, xavfsizlik, raqamli marketing hamda mehmonxona va servis infratuzilmasi bilan integratsiyaning ta'minlovchi model va metodikalar ishlab chiqilmoqda.

Yangi O'zbekiston sharoitida turizm iqtisodiyotini jadal rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. So'nggi yillarda turistik zonalarni tashkil etish, tog' turizmi markazlarini barpo etish hamda ulardan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha kompleks islohotlar amalga oshirilib, sezilarli ijobiy natijalarga erishilmoqda. Turizm iqtisodiyotining strategik tarmog'iga aylantirish ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda. Hukumat oldidagi eng muhim vazifalardan biri – yaqin yillarda yurtimizga keladigan turistlar sonini 9 mlnga yetkazishdan iborat¹. Shu nuqtayi nazardan O'zbekistonning turistik imkoniyatlarini aniqlash, turizmni rivojlantirish va tarmoqni kengaytirishga yo'naltirilgan omillarni tahlil qilish, turistik yo'nalishlarni tashkil qilishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlarni olib borish zarurligi mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-fevraldagi PF-5328-son "O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida",

¹ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2022. – B. 170.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 8-martdagi 198-son “Qashqadaryo viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2021-yil 9-fevraldagi PF–6165-son “O‘zbekiston Respublikasi ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2021-yil 16-fevraldagi 74-sonli 2021–2023-yillarda “Qashqadaryo viloyatining G‘uzor va Yakkabog‘ tumanlari markazlarini obodonlashtirish va kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari², 2021-yil 1-martdagi 112-sonli “Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini yanada qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi³, 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi PF–60-sonli Farmon⁴, 2021-yil 24-fevraldagi 100-son “Ichki va ziyorat turizmni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”⁵gi qarorlari, shuningdek, sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mustaqillik yillarida Qashqadaryoda turizm sohasining shakllanishi hamda rivojlanishi: istiqbollar va muammolar mavzusi hozirgi kunga qadar alohida tadqiqot sifatida hamda muammoviy o‘rganilgan emas. O‘rganilayotgan mavzu tarixiy mosligini shartli ravishda 2 guruhga bo‘lish mumkin.

Birinchi guruh adabiyotlariga bevosita O‘zbekistonda tarixiy-madaniy merosimizning konseptual asoslarini ishlab chiqish, tarixiy-madaniy merosni hisobga olish, me‘moriy obidalar va ziyoratgohlar tarixini ilmiy o‘rganish, turizmni targ‘ib etish bilan bog‘liq masalalar umumiy tahlil etilgan tadqiqotlarni kiritishimiz mumkin. Jumladan, U. Uvvatov, P. Ravshanov, A. Choriyev, O‘. Mavlonov, I. Rayxonov, Sh. Ashurova, A. Xasanov, A. Jumanazar, O. Bo‘riyev, I. Daminov, S.Oqilov, Q. Nasriddinov, J. Avliyoqulova, M. Nazarov, X. Jumayev, N. Xushvaqov, R.Ixсанov, I. Daminov, I. Xoliyorov, M. Kazakbayev, I. Usmonov, N. Ahmedov,

² O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 16-fevraldagi 74-son 2021–2023-yillarda “Qashqadaryo viloyatining G‘uzor va Yakkabog‘ tumanlari markazlarini obodonlashtirish va kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. “Xalq so‘zi”, 2021-yil 17-fevral.

³ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 8-martdagi 198-son “Qashqadaryo viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2021-yil 1-martdagi 112-son “Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini yanada qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari. “Xalq so‘zi”, 2019-yil 9-mart, 2021-yil 2-mart.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi PF–60-sonli Farmoni.

⁵ 2021-yil 24-fevraldagi 100-son “Ichki va ziyorat turizmni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori.

N. Eshpo‘latov, Sh. Sharopov va boshqa mualliflar jamoasi tomonidan⁶ yaratilgan monografiya, risola va tadqiqotlarida ma’lum ma’noda o‘rganilayotgan masala yuzasidan ayrim ma’lumotlar kiritilganligi bilan ahamiyatlidir.

Ikkinchi guruh adabiyotlariga A.M. Mirzayev, R.B. Abriyev, D.Z. Norqulova, M.S. Muxamedova, Sh.G‘. Shomurodova, S. Jo‘rayeva, A.Z. Mo‘minov, M. Hamidova, G. Egamberdiyeva, Sh. Sayfutdinov, F. Xayitova, G‘. Meliqulov, G‘. Rasulov, S.B. Safarov, A.J. Eralov, X. Jumayev, J. Uzaqov⁷larning dissertatsion

⁶ Уватов У. Абул Мўъин ан-Насафий ҳаёти ва мероси. – Тошкент: Маънавият, 2003. – 36 б.; Равшанов П. Султон Мир Ҳайдар ота даражоти. – Тошкент, 2016; Чориев А. Ҳазрати Башир тарихи. – Тошкент, 1994; Ўша муаллиф. Ҳазрати Султон тарихи ва Ҳазрати Башир манокоби – Тошкент: Шарқ, 1996; Мавлонов Ў., Абдуситова И. Тарихий маданий мерос – миллий ғояни англаш омили. – Тошкент: Академия, 2014; Шаропов Ш., Қашқадарё зиёратгоҳлари. 1-китоб. – Тошкент: Voris, 2010; Райхонов И. Ҳазрати Жунайид ал-Бағдодийнинг ҳаёти ва мероси. – Қарши: Насаф, 2017; Ўша муаллиф. Абдуллоҳ ибн Ал-Муборак Ал-Марвазийнинг ҳаёт йўллари. – Қарши: Насаф, 2004; Ашурова Ш., Аҳмедова Қ. Қусам Шайх. – Қарши Насаф., 2005; Ҳасанов А. Қашқадарё шаҳарсозлиги ва меъморчилиги (XVI-XIX асрлар). – Тошкент: Ворис, 2019; Абдусаттор Жуманазар. Насаф. – Қарши: Насаф, 2006; Бўриев О., Очилов А. Қашқадарё воҳаси этномаданий кадриятлари. – Тошкент: Yangi nashr, 2014. – 364 б.; Даминов И. Жаҳолатга қарши маърифат билан курашган буюк аллома. – Самарқанд: Имом Бухорий халқаро илмий-тадқиқот маркази нашриёти, 2019. – 156 б.; Оқилов С. Маворауннаҳр мутафаккирлари илмий мероси. Ўқув қўлланма – Тошкент: Hilol Nashr, 2019; Ўша муаллиф Абул Мўъин ан-Насафий ва “Табсират ал-адилла” асарининг аҳамияти // ТИУ илмий таҳлилий ахбороти. 2002. – №1. – Б. 32-35; Ўша муаллиф Абул Мўъин ан-Насафий илмий мероси ва мотурудия таълимотининг шаклланиш тарихи / монография. – Тошкент: Моворауннаҳр, 2012. – 185 б.; Насриддинов Қ., Хўжаёров Ў. Қарши шаҳрининг меъморий ёдгорликлари. – Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2011; Авлиёкулова Ж.А. Туризм фаолиятини миллий ҳисоблар тизими асосида баҳолаш // Иктисодиёт ва инновацион технологиялар илмий электрон журнал. – №6, 2016; Назаров М.И., Жумаев Х.Х. Қашқадарё вилоятининг сайёҳлик йўналишлари географияси // Ўзбекистонда туризм ва рекреацияни ривожлантиришнинг географик муаммолари ва имкониятлари. Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Чирчиқ, 2019; Равшанов П., Хушвақов Н. Қашқадарёга саёҳат. – Тошкент, 2019. – 159 б.; Ихсанов Р. Қашқадарёга хуш келибсиз – Буюк ипак йўли маданият чоррахасига. – Тошкент, 2022. – 196 б.; Даминов И., Холиёров И., Казакбаев М. Қовчининг донишманд пешволари. – Тошкент: Мухаррир, 2021. – 72 б.; Усмонов И., Аҳмедов Н., Эшпўлатов Н. Шайх Қусам ота ёхуд Баҳоуддин Нақшбанднинг устози ҳақида. – Қарши: Насаф, 2001. – 31 б.; Шаропов Ш., Холиёров И. Ҳазрат Имом Мўъин зиёратгоҳи. – Тошкент: Замин, 2022. – 32 б.

⁷ Мирзаев А.М. Ўзбекистонда тарихий ва маданий ёдгорликларни муҳофаза этиш ва ўрганиш ишининг ташкил топиши ва ривожланиши (1917-1941 йиллар): Тарих фан. номз ... дисс. – Тошкент, 1994; Абриев Р.Б. Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда тарихий-меъморий обидаларни таъмирлаш ва қайта тиклаш тарихи (Зарафшон воҳаси мисолида): Тарих фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2018; Норкулова Д.З. Ўзбекистонда социал туризм хизматларини ривожлантиришни ташкилий-иқтисодий механизмини такомиллаштириш: Тарих фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Самарқанд, 2018. – Б. 154; Мухамедова М.С. Ўзбекистоннинг тарихий шаҳарларида музейлаштирилган объектларда туризмнинг шаклланиши ва ривожланиш истиқболлари (XIX аср ярми – XXI аср бошлари): Тарих фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2020. – Б. 126; Шомуродова Ш., Чимён-Чорвоқ курорт-рекреация зонасида туризмни ривожлантиришнинг табиий географик асослари: География фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2020; Жўраева С. Ўзбекистоннинг жанубий ҳудудларидаги зиёратгоҳлар тарихи ва уларнинг маҳаллий аҳоли ҳаётида туган ўрни: – Тошкент: Ўзкитобсавдо нашриёт матбаа ижодий уйи, 2021; Мўминов А.З. Ўзбекистонда экологик туризмнинг ривожланиш жараёнлари (1991-2020 йй): Тарих фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2021; Ҳамидова М.С. Ўзбекистон ҳудудидаги Амир Темур ва темурийлар даври меъморий ёдгорликлари тарихи: Тарих фан. докт. (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2022; Эгамбердиева Г. Трансформационные процессы в Узбекистане в сфере туризма (1991-2020 гг.): Авторей. док. ист. ... наук. (PhD). – Ташкент, 2022. – С. 26; Sayfutdinov Sh. O‘zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari. Elektron manba: www.tseu.uz. – B. 368-374; Xayitova F. O‘zbek xalqi etnomadaniyatida ziyorat va ziyoratgohlar tarixi (Qashqadaryo vohasi misolida): Tarix fan. bo‘yicha fals. dokt. (PhD) ... diss. avtoref. – Qarshi, 2021; Meliqulov F.A. Tarixiy ёдгорликлар асосида ҳудудларнинг туризм имкониятларини ошириш йўллари (Қашқадарё вилояти мисолида): Архитектура бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2023; Rasulov G‘.P. O‘zbekistonda tarixiy-madaniy merosga yangicha munosabat konsepsiyasi: ishlab chiqilishi va amaliyoti. Tarix fan. bo‘yicha fals. dokt. (PhD) ... diss. ... avtoref. – Termiz, 2023; Safarov S.B. Mustaqillik yillarida janubiy O‘zbekistonda madaniy meros obyektlari va zamonaviy turizmning rivojlanishi jarayonlari: Tarix fan. bo‘yicha fals. dokt. (PhD) ... diss. ... avtoref. – Termiz, 2023; Eralov A.J. O‘zbekistonning janubiy viloyatlarida turizmning rivojlanishi tarixi (1991-2020 yy): Tarix fan. bo‘yicha fals. dokt. (PhD) ... diss. avtoref. – Qarshi, 2023; Jumayev X. Qashqadaryo viloyati turizm rekreatsiya salohiyatini baholash va turizm infratuzilmasining hududiy tizimlarini takomillashtirish: geografiya fanlari bo‘yicha fals. dokt (PhD) ... diss. avtoref. – Qarshi, 2022. – B. 26; Uzaqov J. Mintaqada ziyorat turizmi salohiyatini oshirish mexanizmini takomillashtirish (Qashqadaryo viloyati misolida): iqtisodiyot fan. bo‘yicha fals. dokt (PhD) ... diss. avtoref. – Qarshi, 2024. – B. 28.

tadqiqot ishlarini kiritishimiz mumkin. Ushbu tadqiqot ishlarida asosiy e'tibor tarixiy madaniy merosga munosabat, qayta tiklanish, ta'mirlash, arxeologik obyektlardagi turistik holat kabi masalalar ko'rib chiqilganligi bilan ahamiyatli hisoblanadi. Xususan, A. Eralov dissertatsiyasida Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida turizmni rivojlanishining o'ziga xos jihatlari, turizm sohasida amalga oshirilgan islohotlar, turizmning rivojlanishida muzeylarning o'rni ko'rsatilgan bo'lsa⁸, S. Safarov tadqiqotida Janubiy O'zbekistondagi tarixiy yodgorliklar holati, viloyatlardagi madaniy meros yodgorliklarining turizm sohasini rivojlantirishdagi o'rni⁹ ko'rib chiqilganligi, J. Uzaqov tadqiqotida Qashqadaryo viloyatida ziyorat turizmi rivojlanishining iqtisodiy jihatlari tahlil etilganligi¹⁰ bilan ahamiyatli sanalsa-da, Qashqadaryoda turizm sohasining shakllanishi hamda rivojlanishi: istiqbollari va muammolari asosiy obyekt qilib belgilanmagan.

Dissertatsiya ishining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya Qarshi davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga ko'ra O'zbekiston tarixi kafedrasining "Janubiy O'zbekiston tarixi, arxeologiyasi va etnologiyasining dolzarb muammolari" bosh mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Mustaqillik yillarida Qashqadaryoda turizmning rivojlanishi istiqbollarinin o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish hamda muammolar yechimi bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

O'zbekistonda turizm sohasi rivojlanishining davlat siyosati yaratilganligini va Qashqadaryodagi tatbiqini asoslash;

Qashqadaryoda turizmning paydo bo'lishi va rivojlanishi jarayonlarini ilmiy tahlil etish;

Qashqadaryoda rivojlanayotgan turizmning yangi turlarini asoslash;

Qashqadaryo vohasi muqaddas qadamjolari va ziyorat turizmi masalalarini yoritish;

Qashqadaryo me'moriy obidalari va zamonaviy turizm masalalarini tahlil etish;

Viloyatning turizm sohasida kadrlar masalasi va muammolarini tahlil etish va uni bartaraf etish yo'llarini izohlash;

turizm sohasidagi muammolar va ularni bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rsatib berish va amaliyotga tatbiq etishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida mustaqillik yillarida Qashqadaryoda turizmning rivojlantirish bilan bog'liq imkoniyatlari belgilangan.

Tadqiqotning predmetini Qashqadaryoning mustaqillik yillarida zamonaviy ichki va tashqi turizmni rivojlantirishdagi o'rnini tahlil qilish tashkil etadi.

⁸ Eralov A.J. O'zbekistonning janubiy viloyatlarida turizmning rivojlanishi tarixi (1991-2020 yy): Tarix fan. bo'yicha fals. dokt. (PhD) ... diss. avtoref. – Qarshi, 2023. – B. 50.

⁹ Safarov S.B. Mustaqillik yillarida janubiy O'zbekistonda madaniy meros obyektlari va zamonaviy turizmning rivojlanishi jarayonlari: Tarix fan. bo'yicha fals. dokt. (PhD) ... diss. avtoref. – Termiz, 2023. – B. 52.

¹⁰ Uzaqov J. Mintaqada ziyorat turizmi salohiyatini oshirish mexanizmini takomillashtirish (Qashqadaryo viloyati misolida): iqtisodiyot fan. bo'yicha fals. dokt (PhD) ... diss. avtoref. – Qarshi, 2024. – B. 28.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tizimlashtirish, xolislik, muammoviy-xronologik, taqqoslash, qiyosiy tahlil, statistik tadqiqot hamda fanlararo yondashuv usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Mustaqillikning dastlabki yillarida Qashqadaryo viloyatining shahar va tumanlarida turizm sohasi hali shakllanish bosqichida bo‘lib, turizm mavsumida infratuzilma obyektlarining yetishmasligi, transport vositalari orqali yo‘lovchilarni tashish tizimining muvofiqlashtirilmaganligi, shuningdek, turistlarni mavjud turizm salohiyati to‘g‘risida zarur ma‘lumotlar bilan ta‘minlash darajasining pastligi sohaning rivojlanish sur‘atlarini cheklab, ichki turizmni rivojlantirish, madaniy meros obyektlari va ziyorat turizmining o‘ziga xos xususiyatlarini targ‘ib etishga qaratilgan marketing kompaniyalarining samarador emasligi turizmning jadal rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatib bu turizm sohasini modernizatsiya qilish va institutsional asoslarini yaratish zaruratini yuzaga keltirganligi asoslangan;

Qashqadaryo viloyatida turizm infratuzilmasini rivojlantirish jarayonida barcha obyektlarni jahon standartlari darajasiga yetkazish hamda turistlar ehtiyoj va talablarini to‘liq qondirishni ta‘minlash maqsadida infratuzilmaning asosiy tarkibiy qismlari – transport tizimi, ovqatlanish maskanlari, dam olish va sog‘lomlashtirish muassasalari hamda ko‘ngilochar xizmatlarni kompleks va yuqori darajada tashkil etish ustuvor strategik vazifa sifatida belgilangani dalillangan;

Keyingi yillarda sarguzasht, ekologik va qishloq turizmini rivojlantirishning ahamiyati ortib borayotganligi, jahon turizmi tendensiyalarida sayyohlarning tarixiy-diniy obyektlarga nisbatan tabiatning so‘lim maskanlari, tog‘ yonbag‘irlari, dengiz qirg‘oqlari, sarguzashtlarga boy markazlar, turli o‘yinlar va festivallar o‘tkaziladigan hududlarga tashrifi ko‘proq kuzatilayotganligi sababli Qashqadaryoning tog‘li hududlarida “Shahrisabz” va “Maydanak baland tog‘” kabi turistik markazlar hamda shunga o‘xshash hordiq maskanlarini barpo etish zaruriyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan;

Qashqadaryo viloyatida turizmni rivojlantirish jarayonida ommaviy-ko‘ngilochar tadbirlarni tashkil etish va gastronomik turizmni kengaytirish maqsadida Shahrisabz shahrida xalqaro festivallar o‘tkazilishi, Chiroqchi, G‘uzor va Dehqonobod tumanlarida milliy taomlarga asoslangan gastronomik yo‘nalishlarning shakllantirilishi, Xo‘jai Pok ota, Dahna va Katta Langar ota ziyoratgohlari hududida ekotabiat infratuzilmasining takomillashtirilishi, shuningdek, “Miraki Turizm” mahallasi uchun “Turistik xalqa” konsepsiyasining ishlab chiqilishi, turistik zonalarda kongress holl, rekreatsion va dam olish maskanlarining barpo etilishi, investorlarni jalb qilishga qaratilgan “Investor show-room” hamda turistlarga xizmat ko‘rsatishga mo‘ljallangan “Visitor center” markazlarining tashkil etilishi va hamyonbop turpakatlarning ishlab chiqilishi hududda turizmning zamonaviy yo‘nalishlarini shakllantirishning muhim bosqichlari sifatida ilmiy asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Tadqiqotda muhokamaga tortilgan Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish istiqbollari va muammolari bilan bog‘liq xulosalar, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

Shuningdek, Qashqadaryo viloyatida turizmni rivojlantirishning istiqbolli rejalarini ishlab chiqishda turizm sohasidagi qarorlar va davlat dasturlari ijrosini amalga oshirishda viloyat iqtisodiyotida turizmning ahamiyatini yanada yuksaltirishda ichki va tashqi turizmni rivojlantirish bilan bog‘liq tadbirlarni amalga oshirishda dissertatsiyada keltirilgan taklif va tavsiyalardan foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiyada tarix fanida tan olingan yondashuv va usullarning qo‘llanilganligi, ko‘p turdagi tarixiy adabiyotlar hamda arxiv hujjatlaridan foydalanilganligi, birlamchi manbalarga asoslangani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, Qashqadaryo viloyatida turizmning shakllanish va rivojlanish jarayonini ilmiy jihatdan o‘rganish, tarixiy ahamiyatini belgilash, shu asosda viloyatda ichki va tashqi turizm salohiyatini oshirish bilan bog‘liq nazariy asoslar ishlab chiqilib, sohani yanada takomillashtirish bilan bog‘liq yo‘l xaritasini tuzib chiqish yuzasidan nazariy xulosalar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, dissertatsiyada keltirilgan xulosalar, taklif va tavsiyalar asosida yangi paydo bo‘layotgan turizm turlarini ilmiy jihatdan o‘rganish hamda Qashqadaryo viloyati tarixi va turizm sohasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan maqsadli davlat dasturlarining bajarilishida, OTM muassasalari talabalari uchun tarix, madaniyat, turizm tarixiga oid maxsus kurs, o‘quv qo‘llanmalari va darsliklar tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mustaqillik yillarida Qashqadaryoda turizm sohasining shakllanishi hamda rivojlanishiga oid ishlab chiqilgan xulosalar va takliflar asosida:

Qashqadaryo viloyati shahar va tumanlarida joylashgan turizm vositalari va infratuzilma obyektlarining, ayniqsa, turizm mavsumida yetishmasligi, turizm transportlarda yo‘lovchilarni tashish tizimining yetarli darajada muvofiqlashtirilmaganligi, shuningdek, turistlarni mavjud turizm salohiyat to‘g‘risidagi ma‘lumotlar bilan ta‘minlashni tashkillashtirish darajasi pastligi kabi ilmiy-tarixiy ma‘lumotlardan Qashqadaryo viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi ko‘rgazmalarida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining 2023-yil 24 -martdagi 02-10/854-son ma‘lumotnomasi). Natijada Qashqadaryo viloyatida ichki turizmni, viloyat hududidagi madaniy meros obyektlarining va ziyorat turizmining o‘ziga xosliklarini targ‘ib etish bo‘yicha tegishli xulosalar chiqarish imkonini bergan.

Qashqadaryo viloyatida turizm infratuzilmasini rivojlantirishda barcha infratuzilma obyektlarini jahon andozalari darajasiga yetkazib, turistlar talabini qondiradigan darajaga ko'tarish, buning uchun turizm infratuzilmasining tarkibiy qismlarini tashkil etish haqidagi ma'lumotlardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston tarixi" telekanalida efirga uzatilgan "Ko'hna manzillar" ko'rsatuvini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston tarixi" telekanalining 2023-yil 3-apreldagi 02-51-504-son ma'lumotnomasi). Natijada viloyatda turizm infratuzilmasining transport, oziq-ovqat, dam olish, davolash va boshqa ko'ngilochar xizmatlarini yuqori darajada tashkil etish lozimligini aniqlashga xizmat qilgan.

Keyingi yillarida turizmning sarguzasht, ekologik, qishloq turizmini rivojlantirish, jahon turizmi turistlarning tarixiy, diniy turistik obyektlarga qaraganda tabiatning so'lim maskanlari, tog' yon bag'irlari, dengiz qirg'oqlari, sarguzashtlarga boy markazlar, turli festivallar tashkil etish haqidagi ma'lumotlardan O'zbekiston Milliy Teleradiokompaniyasi "O'zbekiston tarixi" telekanalida efirga uzatilgan "Ko'hna manzillar" ko'rsatuvini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston tarixi" telekanalining 2023-yil 20-apreldagi 06-31-593-son ma'lumotnomasi). Natijada Qashqadaryo viloyatining tog'li hududlarida turistik hordiq chiqaradigan turistik obyektlarni barpo qilishni aniqlashtirishga xizmat qilgan.

Qashqadaryo viloyatida turizmni rivojlantirishda xalqaro festivallarni o'tkazish, gastronomik va ziyorat turizmini kengaytirish, ekotabiat infratuzilmasini takomillashtirish hamda "Turistik xalqa", kongress holl, rekreatsion maskanlar, "Investor show-room" va "Visitor center" kabi zamonaviy obyektlarni barpo etish hisobiga 400 ming nafardan ortiq aholi tashrifini tashkil etish asosidagi ma'lumotlardan O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi tomonidan foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining 2023-yil 24-martdagi 02-10/855-son ma'lumotnomasi). Natijada Qashqadaryo viloyati Shahrizabz shahrida xalqaro festivallar tashkil etish, G'uzor, Dehqonobod taomlari gastronomik turizmini, "Miraki turizm" mahallasini tashkil etilishi, "Turistik xalqani" ishlab chiqishni jadallashtirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ilmiy tadqiqotning asosiy natijalari ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 7 ta respublika, 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda o'z aksini topgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish nashr etilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola, 3 ta xorij, shuningdek, 7 ta respublika va 2 ta xorijiy tezislarni nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “**Kirish**” qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslanib, muammoning o‘rganilganlik darajasi tavsiflangan, ishning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi hamda amaliy natijalari bayon qilingan. Shuningdek, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**O‘zbekistonda turizm sohasi rivojlanishi huquqiy asoslarining Qashqadaryo viloyati uchun ahamiyatli jihatlari**” deb nomlanib, ushbu bobda O‘zbekistonda turizm sohasi rivojlanishining huquqiy negizlari yaratilishi va uning Qashqadaryo viloyatiga tatbiqi, viloyat turizm sohasi rivojlanish jarayonlari tahlil etilgan.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan (1991-yil)dan boshlab O‘zbekistonning turistik xizmatlar bozori shakllana boshladi. O‘zbekistonda turizm sohasini boshqaruvchi tuzilmalar quyidagicha bo‘ldi: “O‘zbekturizm” Milliy kompaniyasi (1992–2016), Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi (2017–2021), Turizm va sport vazirligi (2021–2022), Turizm va madaniy meros vazirligi (2022–2023) va Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarish vazirligi huzurida Turizm qo‘mitasi (2023-h.k).

O‘zbekistonda turizmning huquqiy asoslari shakllanishiga doir qabul qilingan qarorlar ichida 2000-yil 18-martdagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan 911-sonli “Turistik xizmatlarni sertifikatlash haqida”gi¹¹ qarori alohida ahamiyat kasb etdi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab respublikamizda sayyohlik masalalari bilan shug‘ullanuvchi mintaqaviy bo‘linmalar tashkil etildi. 1993-yildan Qashqadaryo viloyatida “O‘zbekturizm” Milliy kompaniyasi Qashqadaryo viloyat mintaqaviy bo‘linmasi faoliyat ko‘rsatdi¹².

“O‘zbekturizm” MK Kengashining 2003-yil 25-fevraldagi qaroriga asosan “O‘zbekturizm” Milliy kompaniyasi Qashqadaryo viloyati Sayyohlik va ekskursiya byurosi nomi bilan qayta tashkil etildi¹³. Ushbu tashkilotning asosiy vazifasi sifatida viloyatdagi barcha sayyohlik va turizm sohasini rivojlantirish belgilab qo‘yilgan edi.

1994-yilda “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi Qashqadaryo viloyat mintaqaviy bo‘linmasi 1994-yil bajarilgan ishlarning yakunlari bo‘yicha bo‘linma tizimidagi “Hamroh” jamoasi hamda Koson sayr va sayohatlar byurosi, Shahrisabz restoranlari belgilangan rejalarni bajara olmadilar. Mintaqaviy bo‘linmaga qarashli 105 o‘rinli “Shahrisabz”, 117 o‘rinli “Tong” mehmonxonalari esa 1994-yilgi belgilangan xizmat ko‘rsatish rejalarni ortig‘i bilan bajardilar¹⁴.

¹¹ 2000 йил 18 мартдаги Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан қабул қилинган 911-сонли “Туристик хизматларни сертификациялаш ҳақида”ги қарори.

¹² O‘zMA Fond M-141, ro‘yxat-1, yig‘ma jild-362, varaq-7.

¹³ Qashqadaryo viloyati davlat arxivi 475-fond, 1-ro‘yxat, 30-yig‘majild, 4-varaq.

¹⁴ O‘zMA Fond M-141, ro‘yxat-1, yig‘ma jild-362, varaq-4.

Shunday qilib Qashqadaryo viloyatida 1991-yilda 28.3 mingta¹⁵ sayyohga xizmat ko'rsatilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1995-yilda 1.7 mingtaga¹⁶ tushdi, 1999-yilda esa 41.2 mingtaga¹⁷ yetdi.

“O'zbekturizm” Milliy kompaniyasi Qashqadaryo viloyati bo'yicha 2003-yilda umumiy hajmi rejada amalga oshirish belgilangan 75 000 ming so'm o'rniga 91479 ming so'mga, foyda olish rejadagi 3500 ming so'm o'rniga 1109.4 ming so'mga bajarildi. Qashqadaryo OXJ da 2 ta mehmonxona 148 ta o'rin mavjud bo'lib, “Qashqadaryo sayyoh” OXJ ga 97 o'rinli 1 ta mehmonxona, 51 o'rinli 1 ta mehmonxona “Shahrisabz sayyoh” OXJga tegishli edi.¹⁸

Viloyat hududiga 2004-yilda jami 31 mingdan ziyod turistlar tashrif buyurdi¹⁹. 2008-yil yanvar-sentabr oylarida viloyatga 5806 nafar turistlar mehmon bo'ldi. Vaholanki, 2007-yilda ular soni 2424 nafarni tashkil qilgan edi. 2008-yilning uch choragi davomida vohada 30 mingga yaqin mahalliy va xorijiy sayyohlarga xizmat ko'rsatilib, turistik va mehmonxona xizmatlari hajmi 2007-yildagiga nisbatan 1,5 baravar oshdi²⁰.

O'zbekiston Respublikasida turizm sohasidagi islohotlar olib borilganiga qaramasdan, mavjud turistik xizmat salohiyatidan to'liq foydalanilmadi. Jumladan, 2009-yilda turizm sohasidagi xizmat ichki yalpi mahsulot umumiy hajmining bor yo'g'i 0,6 foizini tashkil etgan²¹.

2011-yilda viloyatda 19 ta turistik tashkilotlar va mehmonxonalar faoliyat ko'rsatdi (2004-yilda viloyatdagi 4 turistik tashkilot va mehmonxonalar faoliyat ko'rsatgan). Jumladan, viloyat Sayyohlik va ekskursiyalar byurosi, “Kitob Sayyoh” firmasi, “Nasaf-Travel” kompaniyasi, “Tur end Travel Shahrisabz” MCHJ, “Afsona – AMB” MCHJ, “Jayxun” mehmonxona kompleksi, “Tinchlik tuyg'usi” SICHF, “Sarbon LTD” MCHJ “Real komfort”, “Sarbon LTD”, “Koson Darvozasi” MCHJ, “Nazira” SICHFga karashli “Grand Lyuks” mehmonxonasi, “Gissarneftgaz” KK MCHJ, “Ark Kompyuter servis” MCHJ, “Nasaf Oqshomi” MCHJ, “Yoshlik” XF, “Agroavtoxiizmat” MCHJga qarashli “Sokin Plaza” mehmonxonasi, “Nasaf Medio Star” XF kabilar²².

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 9-dekabrda 01-14/1-299-sonli “O'zbekturizm” Milliy kompaniyasi boshqaruvining turizm sohasini va eksport xizmati hajmini rivojlantirishdagi o'rni va roli to'g'risida”gi majlis bayoni asosida ko'pgina ishlar amalga oshirildi. Jumladan, Qashqadaryo viloyatida 2011–2012-yillar mobaynida turizm sohasini rivojlantirish va eksport salohiyatini oshirish bo'yicha manzilli chora-tadbirlar dasturi qabul qilingan bo'lib, unga asosan turizm infratuzilmasini rivojlantirish masalalari amalga oshirish ko'zda tutildi.

¹⁵ O'zMA. 2776-fond, 1-ro'yxat, 553-yig'ma jild, 12-varaq.

¹⁶ O'zMA. 377-fond, 1-ro'yxat, 131-yig'ma jild, 21-varaq.

¹⁷ O'zMA. 377-fond, 1-ro'yxat, 261-yig'ma jild, 37-varaq.

¹⁸ O'zMA. M-141-fond, 1-ro'yxat, 38-yig'ma jild, 24-varaq.

¹⁹ O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: O'zME DIN, 2005. – B. 625.

²⁰ Низомов Т. Welcome to Kashkadarya. Қашқадарё газетаси. 2008 йил 26 сентябрь.

²¹ Сиддиқов Р. Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасига кадрлар тайёрлаш муаммолари. – Тошкент: “Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари” журналі, 2012. – 25 б.

²² Qashqadaryo viloyati Turizm va madaniy meros bosh boshqarmasi joriy arxiv fondi materiallari. 2020-yil dekabr.

2011-yilning 3-choragida sayohatchilarga pullik xizmat ko'rsatish hajmi 322158,4 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2012-yilning 3-choragida 2223785.8 ming so'mni tashkil etdi. Sayohatchilarga pullik xizmat ko'rsatish hajmi 2011-yilning shu davriga nisbatan 690.2 %ni tashkil etadi. Shuningdek, 2012-yil 3-choragi mobaynida jami 15.6 ming kishiga turistik xizmat ko'rsatildi, shundan, 1271 nafar chet ellik sayohatchilar hamda 524 nafar MDH mamlakatlaridan qabul qilingan. 1428 nafar mahalliy aholi sayohatga olib borildi. 12352 nafar O'zbekiston fuqarolariga mehmonxona va ekskursiya xizmati ko'rsatildi. 2012-yil 3-chorak davomida chet el va MDH mamlakatlari fuqarolariga 138.8 ming AQSH dollar miqdorida eksport xizmati ko'rsatildi.

Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning huquqiy negizlari sifatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2013-yil 1-noyabrda qabul qilingan "2013–2015-yillarda Qashqadaryo viloyati turizm sohasini rivojlantirish dasturi to'g'risida"gi 294-sonli qarori²³, 2019-yil 18-martdagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 198-sonli "Qashqadaryo viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va 2021-yil 1-martdagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 112-sonli "Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini yanada qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlarini alohida ta'kidlab o'tish lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli farmonida ham turizm sohasini rivojlantirishga alohida urg'u berilganligini ta'kidlab o'tishimiz lozim. Turizm sohasini rivojlantirish maqsadida hukumat tomonidan, jumladan, shaxsan Prezident tomonidan bosqichma-bosqich kompleks qarorlar, farmonlar va davlat dasturlari qabul qilindi. Jumladan, 2018-yilning o'zida 4 ta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni, 6 ta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori, 1 ta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoyishi, 15 ta O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 2 ta O'zbekiston Respublikasi farmoyishi va 1 ta davlat organlarining qo'shma qarori hamda 4 ta davlat dasturi qabul qilindi. 2016-yildan boshlab yangi saylangan Prezidentning ilk qarori turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan bo'lsa, 2019-yilgacha 14 ta Prezident qarori va 9 ta Prezident farmoni²⁴, 2021-yilda esa O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1 ta qarori, 2022-yilda 1 ta Vazirlar Mahkamasi qarori qabul qilindi. "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"da²⁵ turizm – O'zbekiston iqtisodiyotining drayveri ekanligini hisobga olinib, islohotlarning yangi bosqichida turizm bo'yicha strategik vazifalar belgilab berildi.

²³ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан 2013 йил 1 ноябрда қабул қилинган "2013–2015 йилларда Қашқадарё вилояти туризм соҳасини ривожлантириш дастури тўғрисида"ги 294-сонли қарори.

²⁴ Холиқова Р. Ўзбекистонда туризм салоҳиятини ривожлантириш ва унинг истикболлари / "O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda tarixiy muzeylarning o'rni" Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi 23-mart, 2021-yil. – B. 7-8.

²⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi PF-60-sonli Farmoni.

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev topshirig‘iga binoan, 2022-yilda ichki turizmni rivojlantirish maqsadida Qashqadaryo viloyat hokimligi, Turizm va madaniy meros bosh boshqarmasi, Yakkabog‘ tuman hokimligi hamkorligida Yakkabog‘ tumanidagi Qorabayir otchilik majmuasida “Etnosport va turizm festivali” bo‘lib o‘tdi. Festivalda ot sporti ustalari tomonidan ot sporti turlari namoyish etildi. Viloyatimiz hunarmandlari qadimda foydalanilgan ot jihozlari va boshqa hunarmandchilik mahsulotlari bilan ishtirok etishdi.

Qashqadaryo viloyati Yakkabog‘ tumanidagi Qorabayir otchilik majmuasida etno sport va turizm festivali bo‘lib o‘tdi. Qashqadaryo viloyatida turizm salohiyatidan samarali foydalanish hududga xorijiy va mahalliy turistlarni keng jalb qilish uchun qulay sharoitlar yaratish, ziyorat, tarixiy, eko va etno turizmni rivojlantirish bo‘yicha bir qator chora tadbirlar amalga oshirilmoqda.

2022–2024-yillarda Kasbi tuman Sulton Mir Haydar ota ziyoratgohida “Ichki va ziyorat turizm yarmarkasi kulolchilik festivali” tashkil etildi. Festivalga viloyatimizning barcha tumanlaridan mehmonlar tashrif buyurdi. Kasbi tumanidagi Sulton Mir Haydar majmuasida bo‘lib o‘tgan “Ichki va ziyorat turizm yarmarkasi” hamda “Kulolchilik festivali” doirasida professor olimlar ishtirokida ilmiy anjuman tashkil etildi. Mazkur anjumanni o‘tkazishdan asosiy maqsad viloyatimizda mavjud ziyoratgohlarni aholi o‘rtasida keng targ‘ib qilishdir.

“Qashqadaryodagi turizmning samarali yo‘nalishlari va rivojlanayotgan yangi turlari” deb nomlangan ikkinchi bobning birinchi paragrafida *“Qashqadaryo viloyatida rivojlangan ziyorat turizmi”* tahlil etilgan.

Muqaddas qadamjo va ziyoratgohlar o‘zbek xalqining ma’naviy dunyoqarashida alohida qiymatga ega obyekt hisoblanib, asrlar osha xalqni ezgulik sari chorlab kelgan.

Qashqadaryo viloyatida 1189 ta arxeologiya yodgorliklari, 208 ta arxitektura yodgorliklari, 43 ta monumental san’at yodgorliklari, 28 ta diqqatga sazovor joylar mavjud²⁶.

O‘zbekistonning boshqa hududlari kabi Qashqadaryo vohasi ham ziyoratgohlar hamisha gavjum bo‘lgan maskanlardan biridir. Vohadagi ziyoratgoh va muqaddas qadamjolar paydo bo‘lishi, joylashuvi, tabiiy xususiyatlariga ko‘ra, avliyolar, diniy ulamolar, tarixiy shaxslar bilan bog‘liq ziyoratgohlar, me’moriy yodgorliklar, geografik obyektlar va tabiat mo‘jizalari bilan bog‘liq ziyoratgohlar, kasblar bilan bog‘liq va ayollar tashrif buyuradigan ziyoratgohlar, hayvonlar va jonivorlarni muqaddaslashtirish bilan bog‘liq ziyoratgohlar, turistik manzillar kabi turlarga tasniflanadi.²⁷

O‘zbek milliy va ma’naviy qadriyatlarining tayanch ustunlaridan biri bo‘lgan muqaddas qadamjo va ziyoratgohlar xalqning tafakkurini shakllanishiga ta’siri va alohida tadqiqot manbai sifatida o‘zbek mentalitetining tarixiy shakllanish ildizlarini ochib berishda muhim o‘rin tutadi.

²⁶“Moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 846-sonli Vazirlar Mahkamasi qarori, 2019-yil 4-oktabr.

²⁷ Xayitova F. O‘zbek xalqi etnomadaniyatida ziyorat va ziyoratgohlar tarixi (Qashqadaryo vohasi misolida): Tarix fan. bo‘yicha fals. dokt. (PhD) ... diss. avtoref. – Qarshi, 2021. – B. 22.

Jumladan, muqaddas ziyoratgohlar kishilardagi oliyjanoblik tuyg'ularini shakllantirishda alohida ahamiyatga ega bo'lishi bilan birga muqaddas joylarni ziyorat qilish insonlarni to'g'ri yo'ldan yurishi, insof-diyonatli bo'lish va o'zidan faqat yaxshilik qoldirish singari xayrli ishlarga chorlagan. Qolaversa, muqaddas ziyoratgohlar o'zbek xalqining milliy va ma'naviy boyligi bo'lib, bu Qashqadaryo vohasida joylashgan Makka Said ota, Tutak ota, Xo'ja Ilg'or ota (Yakkabog' tumani), Abu Ubayda Jarroh (Qarshi shahri), Imom Muyin an-Nasafiy majmuasi, (Qarshi tumani), Langar ota, Mushkul ota, O'g'lonjon ota (Qamashi tumani), Hazrati Bashir, Hazrati Sulton, Xo'ja Ne'matulloh maqbarasi, Xo'ja Ilm Kon maqbarasi, Mavlono Darvesh Muhammad Vaxshuvoriy (Kitob tumani), Xusam ota (Koson tumani), Mir Haydar Sulton, Xo'ja Murodbaxsh (Kasbi tumani), Ko'hna Fazli (Mirishkor tumani), Xo'jai Pok ota, Buloq ota (Dehqonobod tumani), Nazar bobo (Nishon tumani), Muborak al-Marvaziy ziyoratgohi (Muborak tumani) Xo'jaipok ziyoratgohi (Dehqonobod tumani), Musofir ota maqbarasi (G'uzor tumani), Langar ota va Shakarchi ota ziyoratgohlari (Chiroqchi tumani) singari ziyoratgoh va muqaddas qadamjolarida o'z aksini topgan.

Ma'lumki, dunyoda turizmning tan olingan 3 ta xalqaro turizm, milliy turizm, ichki turizm guruhi mavjud bo'lib²⁸, uning tematikasi jihatdan bir qancha turlari tarixiy obidalar va tarixni o'rganishga qaratilgan turizm, ziyorat turizmi, etnografik turizm, ekologik turizm, ta'lim olish, sport va boshqa dam olish bilan bog'liq turizmni tashkil etadi²⁹.

Ziyorat turizmi obyektlari deganda, mamlakat ichida odamlar diqqatini tortadigan tarixiy obidalar, buyuk shaxslar qadamjolari kabi tarixiy, ma'naviy va ma'rifiy ahamiyatga ega obyektlarni o'z ichiga oladi. Mamlakatimizda ziyorat turizmi sohasi mustaqillikning dastlabki kunlaridan iqtisodiy taraqqiyotning ustuvor yo'nalishi sifatida e'tirof etilib, unga e'tibor iqtisodiy siyosat darajasiga ko'tarildi.

Ziyorat turizmi bo'yicha mamlakatimizning salohiyati juda yuqori bo'lib, mazkur yo'nalishda zarur qulayliklar yaratish maqsadida, Din ishlari bo'yicha qo'mita tarkibida "Ziyorat turizmini qo'llab-quvvatlash bo'limi" tashkil etildi, ayrim musulmon mamlakatlari fuqarolari uchun vizasiz rejim joriy qilindi³⁰.

2019-yil Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalar sifatida Kitob tumanidagi Xo'ja Imkanagiy ziyoratgohi, Mirishkor tumani Pomuq qishlog'idagi Isoq ota majmuasi, G'uzor tumani G'uzor shahridagi "Musofir ota" ziyoratgohi va turizm obyektlariga olib boruvchi jami 83 km yo'l va yo'l bo'yi infratuzilma investitsiya dasturiga kiritildi.

Qarshi shahrida loyiha qiymati 10 mlrd so'mlik yangi "Buyuk karvon" mehmonxonasi ish boshladi. Qarshi tumani Qovchin qishlog'idagi Abul Mu'in Nasafiy majmuasida obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi, kutubxona va

²⁸ Жўраева С. Ўзбекистоннинг жанубий худудларидаги зиёратгоҳлар тарихи ва уларнинг маҳаллий аҳоли ҳаётида тутган ўрни. – Б. 200.

²⁹ Пардаев М.Қ., Атобоев Р., Пардаев Б.Р. Туризм соҳасини ривожлантириш имкониятлари. – Тошкент: Фан ва технология, 2007. – Б. 7.

³⁰ О'зМА. М-141, 1-ро'ухат, 38-ish, 2-varaq.

Nasafiyalar muzeyi tashkil qilindi³¹. “Odina masjidi”, “Langar ota” ziyoratgohlarida kapital ta’mir, obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlari olib borildi. “Abul Mu’in Nasafiy”, “Qusam shayx” ziyoratgohlarida yo‘l ko‘rsatgichlar o‘rnatildi³².

Qashqadaryo viloyatida eko turistik hamda davolovchi xususiyat sifatida qaraladigan ziyoratgohlar ham ko‘p. Kitob tumani Hazrati Bashir ziyoratgohi, Ne’matulloh Valiy ziyoratgohi, Xo‘ja Asfaroq qishlog‘idagi Oqsuv ziyoratgohi, nomi bilan mashhur bo‘lib, xalq orasida Shayx Shayxsiddin Karomati deb ta’riflanadi. Dehqonobod tumani Xo‘jaipok ota, Dahna ziyoratgohi, Katta Langarota ziyoratgoh hududlaridagi eko tabiat infratuzilmalaridan foydalanish mumkin. Xo‘jaipok shifobaxsh suvi tarkibida Mendeleyev jadvalining ko‘plab mineral moddalari, shu jumladan H, KCE, Ca, Mg, oltingugurt, suv va balchiqning tarkibida radion borligi ham aniqlangan³³. Xo‘jaipok ota shifo maskanining tabiati juda chiroyli, havosi toza, bu yerda zamonaviy talablarga mos davolash sanatoriysi qurilsa, turizmni rivojlanishi uchun ham turtki bo‘ladi.

Dissertatsiya ikkinchi bobining “*Viloyatda rivojlanayotgan turizmning yangi turlari*” deb nomlangan ikkinchi paragrafida bugungi kunda rivojlanish pallasiga kirgan va kirayotgan turizmning zamonaviy turlari tahlil etilgan. Bugun jahon mamlakatlarida turizm sohasi jadal rivojlanmoqda va shu asnda turizmning turlari ham ko‘payib bormoqda. O‘zbekistonda, shu jumladan, Qashqadaryoda ham turizm sohasining juda ko‘p va yangidan yangi turlari rivojlanmoqda. Bu turlar jumlasiga ekoturizm, ziyorat, arxeologik turizm, tibbiy turizm, bog‘ turizmi, enoturizm, tog‘ turizmi, kemping turizm, etnik turizm, o‘rmon turizmi kabilarni keltirib o‘tishimiz mumkin.

Ekoturizm tinch va sokin tabiiy hududlarga tashrif buyurishni o‘z ichiga oladi. Qashqadaryo viloyatida ekoturizm rivojlanishi uchun yetarlicha salohiyat mavjud. Qashqadaryo ekoturistik tumani cho‘l, dasht, tog‘ oldi va tog‘li hududlardan iborat. Bu tumanda bahor va yoz fasllarida cho‘l va dashtlarda, yilning barcha fasllarida esa tog‘ oldi va tog‘li hududlariga ekoturlar uyushtirish mumkin.

Hisor davlat qo‘riqxonasi – Hisor tog‘ tizmasining g‘arbiy yonbag‘rida dengiz sathidan 1750 metrdan 4349 metrgacha balandlikda joylashgan. 1983-yilda ikki davlat qo‘riqxonasi – Qizilsuv va Miroqi qo‘riqxonalarining birlashishi natijasida tashkil qilingan³⁴.

O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitob”iga kiritilgan noyob turlardan qo‘riqxonada 32 turdan kam bo‘lmagan tomirli o‘simlik turi o‘sadi. Qo‘riqxonaning hayvonot olami juda boy bo‘lib, bu yerda, asosan, 2 turdagi baliq, 19 turdagi amfibiya va reptiliya, 103 turdagi uyali qushlar, 28 turdagi sut

³¹ Qashqadaryo viloyati Madaniy meros boshqarmasi joriy arxivi. 2022-yil 18-avgust.

³² Qashqadaryo viloyati turizm boshqarmasi joriy arxivi ma’lumotlari.

³³ Тошқулов К. Қадимий ва навқирон Дехқонобод. 2-китоб. – Тошкент: Турон Замин зийоси, 2015. – Б. 22.

³⁴ Маматов А., Абдуллаев С., Хўжамқулов Б. Ҳисор давлат қўриқхонаси – Ўрта Осиё тоғ табиатнинг андозаси. – Қарши, 2010. – Б. 5.

emizuvchilar yashaydi³⁵. Bu esa ekoturizmni rivojlantirish uchun o‘ta qulay hudud hisoblanadi³⁶.

Pachkamar suv omborida baliqchilik xo‘jaligi tashkil etilgan. Pachkamar suv ombori go‘zal manzarani hosil qilgan bo‘lib, bu ko‘plab tabiatni sevuvchi sayyohlarni o‘ziga jalb qila oladi.

“Hisor davlat qo‘riqxonasining qo‘riqlanma zonasini belgilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasining 94-sonli qaroriga muvofiq, umumiy yer maydoni 2000,0 gektar bo‘lgan Hazrati Sulton platosi, Suvtushar sharsharasi, Dinozavr izlari, Amir Temur g‘ori obyektlarini qo‘riqxonada hududidan qo‘riqlanma zonasiga o‘tkazildi va mazkur hududlarda ziyorat turizmi hamda ekologik turizmni tashkil qilish choralari ko‘rildi³⁷.

Qashqadaryoda joylashgan ko‘plab qishloqlarda ekoturizmni samarali yo‘lga qo‘yish mumkin: Masalan, Yakkabog‘ tumanida “Chillabuloq” ziyoratgohi joylashgan O‘g‘in qishlog‘i ana shunday maskanlardan biridir.

Ziyorat turizmi – diniy turizmning bir turi. Haj ziyoratlari turli dinlarga mansub dindorlar tomonidan amalga oshiriladi. Bu muqaddas joylarga, cherkovlarga, monastirlarga, tashrif buyurish. O‘zbekistonga musulmon davlatlaridan kelgan ko‘pchilik turistlar uchun ziyorat turizmining asosiy yo‘nalishlari Hazrati Bashir, Abul Mu‘in an-Nasafiy, Sulton Mir Haydar ota hisoblanadi³⁸.

Arxeologik turizm hudud arxeologiyasiga qiziqish, qadimiy obidalar, qazish joylariga tashrif buyurish, arxeologik ekspeditsiyalarda qatnashishni o‘z ichiga oluvchi sayyohlik yo‘nalishi hisoblanadi.

Siypantosh yodgorligi arxeologik turizmning eng asosiy manzillaridan biri hisoblanadi. Qadimgi ibtidoiy san‘at yodgorligi Siypantosh qoyatosh rasmlari Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumanidagi tog‘li Quruqsoy qishlog‘ining o‘ng tomonida joylashgan. Noyob yodgorlik O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning “Moddiy-madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 19-dekabrda PQ–4068-son qarori ijrosi yuzasidan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-maydagi 443-sonli qarori bilan “Shahrizabz” davlat muzey-qo‘riqxonasi tarkibiga kiritilgan.

Amir Muhammad (Barloslar) maqbarasi deb nomlanayotgan madaniy meros yodgorligi “Uchtepa” MFY hududidan 850 metr shimolda, “Olaqarg‘a” MFY hududidan esa 1100 metr g‘arbda, Toshkent – Termiz (M-39) va Yakkabog‘ shahri –Yakkabog‘ qo‘rg‘oni avtomobil yo‘llari chorrahasidan 500 metr janubi-sharqda, olma daraxtlari ekilgan bog‘ orasida joylashgan³⁹.

Maqbaraga ko‘milgan marhum hijriy 822 (milodiy 1419) yilda vafot etgan amir Muhammad bin amir Ayyuk (amir Muhammad amir Ayyuk o‘g‘li) degan

³⁵Xaitboyev R. Ekologik turizm. – Toshkent, 2018. – B. 138.

³⁶ Rasulova M. Qashqadaryo viloyatining ekoturistik salohiyati. O‘rta Osiyo tarixi va arxeologiyasi ilmiy konfrensiyasi maqola va tezislari to‘plami. – Termiz, 2023. – B. 27.

³⁷ “Hisor davlat qo‘riqxonasining qo‘riqlanma zonasini belgilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasining Qarori, 2020-yil 18-fevral. Lex.uz.

³⁸ Rasulova M. Turizm turlari va rivojlanish bosqichlari. – Qarshi, 2021. – B. 34.

³⁹ Normurodov D., Meyliyev I. Yakkabog‘dagi Amir Muhammad (Barloslar) maqbarasi. – Toshkent: Renessans Press, 2023. – B. 10.

shaxs ekanligini, u Amir Temurning zamondoshi ekanligiga aniqlik kiritilganligi bilan ahamiyatlidir.

G‘uzor tumanida joylashgan To‘ra qo‘rg‘oni XIX asrning oxirida Abdumalik to‘ra va amaldorlarning xalq qo‘zg‘olonlaridan saqlanishi uchun qurilgan. Qo‘rg‘on shaharning markaziy qismida, atrofi qalinligi 2 metr, balandligi to‘rt-besh metr bo‘lgan paxsa devor bilan o‘rab olingan. Bu yerda to‘ralikning boshqaruv apparati joylashgan⁴⁰. Ushbu hududlar arxeologiya turizmi uchun samarali hisoblanadi.

Bugungi kunda talab oshib borayotgan *tibbiy turizm* – davolanish maqsadida boshqa hududlarga borishni o‘z ichiga oluvchi turlardan biri. Qashqadaryo viloyati tibbiy turizm uchun eng yaxshi maskanlardan hisoblanadi. Viloyatdagi sog‘lomlashtirish markazlari, sanatoriyalarning ko‘pchiligi tog‘li hududlarda, tabiat bag‘rida joylashganligi tashrif buyuruvchilarga yaxshi kayfiyat bag‘ishlaydi.

1993-yilda o‘z faoliyatini boshlagan “Miraki sanatoriyasi” Shahrisabz shahridan 30 km masofada Hisor tog‘ tizmalari etagida, dengiz sathidan 1000 metr balandlikda Oqsuv, Qorasuv daryolari hamda “Hisorak” suv ombori yaqinida joylashgan, havosi toza va zilol suvlari ming dardga davo, tabiati go‘zal iqlimiy sihatgohdir⁴¹. Shu sabab bu joy odamlar bilan gavjum.

2025-yil 1-sentabrga qadar Kitob tumanining “Qaynar” mahalla fuqarolar yig‘ini hududida barcha sharoitlarga ega bo‘lgan eng zamonaviy tipdagi sanatoriy qurish va faoliyati yo‘lga qo‘yilishi kutilmoqda⁴² va bu tibbiy turizmni rivojida muhim omil bo‘lib xizmat qilishi aniq.

Enoturizm – vinoni tatib ko‘rish, uni tayyorlash jarayonida ishtirok etish, uzumzorlarda sayr qilish va hosil yig‘im-terimida ishtirok etishni o‘z ichiga oluvchi tur. Bu Qashqadaryo viloyatining Yakkabog‘, Shahrisabz, Kitob tumanlarida endi yo‘lga qo‘yilayotgan turizm turi sanaladi.

Yakkabog‘ tumanida “Shahrisabz vino-arog‘” AJ ga tegishli yana 50,0 gektar yer mavjud bo‘lib, uning negizida uzumzorlarni kengaytirish rejalashtirilgan va bu esa kompaniya faoliyatini o‘z xomashyosi bilan ta‘minlash imkoniyatini beradi. 2020-yilda vino ishlab chiqarishning umumiy hajmi 80 ming dekalitni tashkil etib, korxonada ishlab chiqarilgan “Portvein Kesh” va “Shahrisabz afsonasi” brendlari ayniqsa mashhur bo‘ldi⁴³.

Tog‘ turizmi – yurish yo‘llari, dovonlarni, tik qiyaliklarni, toshloq joylarni, tog‘ daryolari va muzliklarni yengib o‘tish qiyinchiliklaridan zavq oluvchilar uchun dam olish turi. Turli xil murakkablik va tayyorgarlik marshrutlari mavjud, bu yerda tajribali alpinistlar va maxsus tayyorgarlikka ega bo‘lmagan odamlar qatnashishi mumkin. Tog‘lar, mohiyatan, inson irodasini qayta-qayta mustahkamlaydi, jasorat va ma‘naviy kuchni rivojlantiradi⁴⁴.

⁴⁰ Зияева Д. Ўзбекистон шаҳарлари XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида. – Тошкент, 2017. – Б. 216.

⁴¹ Miraki.uz. veb sahifasi ma‘lumotlari.

⁴² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qashqadaryo viloyatining tog‘li-rekreatsion hududlarida zamonaviy xizmat ko‘rsatish va turizm obyektlarini barpo etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-376-sonli Qarori, 2023-yil 28-noyabr. Lex.uz.

⁴³ “Shahrisabz vino-arog‘” AJ ustav kapitalidagi 51,01 foiz aksiyalar paketini sotish to‘g‘risidagi e‘lon, Uz-assets.uz. 2021-yil 17-iyul.

⁴⁴ “Langar ota”ni butun islom olamiga tanitishimiz kerak – Prezident. Xabar.uz. 2021-yil 14-dekabr.

Kemping turizm. Kemping – bu chodirda yoki ko‘ngil ochish maqsadida dam olishni o‘z ichiga olgan taniqli ochiq havo faoliyati. Bu arzon turar joy varianti sifatida qaraladi. Eng kamida bir kecha-kunduzdan iborat bo‘ladi, shuningdek, dam olish, piknik va boshqa qisqa muddatli ko‘ngilochar tadbirlardan ajralib turadi.

Musiqiy turizm – musiqiy festival va musiqiy tomoshalarda ishtirok etish uchun tashrif buyurishni o‘z ichiga oluvchi tur. So‘nggi yillarda Qashqadaryoda bu tur jadal rivojlanmoqda. 2018-yil sentabrda Shahrisabz shahrida o‘tkazilgan I Xalqaro maqom festivali turizmning bu yo‘nalishi rivojiga katta ta‘sir ko‘rsatdi.

Shahrisabz shahri 2024-yilda Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti turizm poytaxti deb e‘lon qilingani munosabati bilan shu yilning 25–26-aprel kunlari bir nechta xalqaro tadbirlar bo‘lib o‘tdi. Jumladan, IHT ga a‘zo davlatlar folklor jamoalari ishtirokida “International folk” festivali o‘tkazildi. Ushbu tadbirlar musiqiy turizmni kengroq yoyilishiga xizmat qilmoqda.

Agroturizm – bu fermer xo‘jaliklariga tashrif buyurish, tajriba o‘rganish va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini tatib ko‘rishni o‘z ichiga oluvchi tur. Qashqadaryo viloyati agroturizm yo‘nalishida respublikada yetakchi o‘rinlarda turadi.

Gastronomik turizm – oshxona turizmi, ya‘ni sayyohlarni ma‘lum bir hududga sayohat qilishi jarayonida o‘sha hududning o‘ziga xos milliy taomlaridan bahramand bo‘lish imkonini beruvchi tur. Turizmning ushbu turi sayyohlar sonini keskin oshishiga xizmat qiluvchi turlardan hisoblanadi. Qashqadaryo viloyatida ham gastronomik turizm imkoniyatlari keng. Jumladan G‘uzor tumanining “tandir go‘шти”, Ko‘kdala tumanining “Chiyali yaxna” taomi dunyoga mashhur.

Sanoat turizmi – mahsulot ishlab chiqarish jarayonlari bilan tanishish hisoblanib, Muborak va G‘uzor tumanidagi neft-gaz sanoati korxonalari, konlarida turizmning ushbu turini rivojlanishi uchun imkoniyatlar yetarli.

Geologiya turizmi – oltin, ruda va boshqa mineral resurslar qazib oluvchi konlar, shaxtalar, faoliyat yuritmayotgan geologik obyektlarida texnologik jarayonlarni, shu jumladan, tog‘ jinslarini portlatish tadbirlarini bexatar masofadan kuzatish, mutaxassislar bilan muloqot qilish, tog‘ relyeflari bo‘yicha ekskursiyalarni tashkil qilishni nazarda tutadi.

Ilmiy turizm – ilmiy-tadqiqot institutlari va laboratoriyalar, observatoriyalar hamda planetariylar, Fanlar akademiyasi va uning tizimidagi tashkilotlarga tashrif buyurish orqali fan va texnika yutuqlari bilan tanishish hisoblanib, viloyatda endi shakllantirilayotgan turizm sohasidir.

Harbiy turizm – harbiy tarix va faoliyat bilan bog‘liq joylarga tashrif buyurish, yodgorliklar va tadbirlarda qatnashish, harbiy xizmatchilar hayoti va sharoitlari bilan yaqindan tanishish, hududlarda turistlarga o‘q otish bo‘yicha pulli xizmatlar tashkil qilish hisoblanadi.

Davlat-boshqaruv turizmi – mamlakatning siyosiy hayoti, davlat organlari va tashkilotlarining tarixi va faoliyatini aks ettiruvchi joylarga, xususan, Hukumat bino va inshootlariga tashrif buyurishni o‘z ichiga oladi⁴⁵.

⁴⁵ “Turizmning yangi turlarini joriy qilish hamda mamlakatimizning turistik salohiyatidan samarali foydalanishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasining 582-sonli Qarori, 2024-yil 18-sentabr, Lex.uz.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, Qashqadaryo viloyati turizm sohasida ulkan salohiyatga ega. Ammo uzoq yillar bu imkoniyatdan to'liq va samarali foydalanilmadi. Shunday bo'lsa-da, keyingi yillarda mazkur sohaning huquqiy asoslari yaratilib, shiddat bilan rivojlantirilayotganligi quvonarli hol. Qashqadaryoda mavjud bo'lgan yoki yangi paydo bo'lgan turizm yo'nalishlari viloyat iqtisodiyotiga katta foyda keltirib, aholi daromadining oshishiga, tadbirkorlikning rivojlanishiga ham samarali ta'sir ko'rsatishi shubhasizdir.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Qashqadaryo viloyatida turizm sohasi muammolari va yechimlari”**ga bag'ishlangan bo'lib, uning birinchi paragrafida *“Viloyatning turizm sohasida kadrlar masalasi va muammolari”*ga bag'ishlangan. Har bir yosh avlod tarbiyasida o'ziga ishonch, kelgusida yuksak marralarni egallash, muvaffaqiyatga erishishida vatanga muhabbat tuyg'ularini shakllantirishda madaniy merosimiz ulkan ahamiyat kasb etadi. Qarshi davlat universiteti viloyatda oliy ma'lumotli turizm sohasida malakali kadrlar tayyorlovchi yagona maskanlardan biri sanaladi. Qarshi davlat universiteti Iqtisodiyot va servis kafedrasi qoshida 2014–2015-o'quv yilidan boshlab 5610300 – Turizm (xalqaro va ichki turizm) ta'lim yo'nalishiga talabalar qabuli boshlandi. 2018–2019-o'quv yilida 5A610301 – Turizm (faoliyat yo'nalishlari bo'yicha) magistratura mutaxassisligi ham ochildi⁴⁶.

Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish yo'nalishida 2022–2023-o'quv yilida 19 ta talaba, 2023–2024- o'quv yilida 8 ta talaba qabul qilingan. 2024-yilda turizm yo'nalishi 1-kurs magistrarlari 5 ta, tayanch doktorant 3 ta, mustaqil izlanuvchi 2 tani tashkil etdi⁴⁷.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 2021-yil 22-sentabrda tasdiqlangan “Qarshi davlat universiteti tarkibiy tuzilmasi”ga ko'ra “Iqtisodiyot” fakultetining tarkibida “Iqtisodiyot” va “Turizm va marketing” kafedralari tashkil etildi.

Kafedra bitiruvchilarining asosiy iste'molchilari O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi, Qashqadaryo viloyat hokimligi, tijorat banklari, xususiy korxonalar hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sektorlari, turistik firma va korxonalar hisoblanadi.

Hozirda kafedrada asosiy shtatda 12 nafar professor-o'qituvchi, jumladan, 1 nafar iqtisod fanlari nomzodi, 2 nafar PhD, 2 nafar katta o'qituvchi, 7 nafar o'qituvchilar faoliyat ko'rsatmoqda⁴⁸.

Kafedraning o'quv va ilmiy faoliyatiga 2 nafar professor, 1 nafar dotsent jalb etilgan.

Qarshi davlat universitetida Iqtisodiyot fakulteti Turizm va marketing kafedrasi hamda Qashqadaryo viloyati Yosh turizm elchilari kengashi hamkorligida 2024-yil 27-sentabrda “Xalqaro turizm kuni” munosabati bilan Turizm festivali o'tkazildi⁴⁹.

⁴⁶ QarDU Iqtisod fakulteti dekani, dots. G'. Nabiye'v bilan muloqot. 2024-yil 30-may.

⁴⁷ QarDU Iqtisod fakulteti Ilmiy kengashi bayonnomasi. 2024-yil sentabr.

⁴⁸ QarDU “Turizm va marketing” kafedrasining 2024-yil 1-yarim yillik hisoboti materiallari.

⁴⁹ @kashkadaryo_travel ma'lumotlari.

Qashqadaryo viloyatida Shahrisabz turizm va madaniy meros texnikumi ham turizm sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlovchi yetakchi ta'lim muassasalaridan biri hisoblanadi. Ushbu texnikum faoliyati tarixiga nazar tashlasak, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 14-avgustdagi № 338-sonli qarori, Respublika o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi Markazining 2003-yil 6-avgustdagi № 176-sonli buyrug'i hamda Qashqadaryo viloyat hokimligi o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi boshqarmasining 2003-yil 27-avgustdagi № 386-M sonli buyrug'iga asosan, 12-son kasb-hunar maktabi tugatilib, o'rnida Shahrisabz turizm va maishiy xizmat ko'rsatish kasb-hunar kolleji tashkil etildi⁵⁰. Kollejda maishiy xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan 13 ta ixtisoslik bo'yicha mutaxassislar tayyorlash yo'lga qo'yildi.

O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi Markazining 2004-yil 9–25-oktabrdagi 22-sonli buyrug'i, Qashqadaryo viloyat o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi boshqarmasining 2004-yil 27-oktabrdagi 387-M sonli buyrug'iga asosan, Shahrisabz turizm va maishiy xizmat kasb-hunar kollejining nomi Shahrisabz oziq-ovqat va maishiy xizmat ko'rsatish kasb-hunar kolleji deb o'zgartirildi. 2004–2005-o'quv yilida kollejga 13 ixtisoslik bo'yicha 669 nafar talaba o'qitildi. 2004- yilning aprel oyida “Turizm yo'nalishidagi mashg'ulotlarni tashkil qilishning dolzarb muammolari” mavzusida Respublika ilmiy amaliy anjumani bo'lib o'tdi. Ushbu anjuman Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Turizm servisi” kafedrasida professor-o'qituvchilari bilan hamkorlikda tashkil etildi. Anjumanda turizm yo'nalishi bo'yicha ko'plab muammoli masalalar o'z yechimini topdi⁵¹.

2022–2023-o'quv yilidan boshlab Shahrisabz turizm va servis kolleji negizida Shahrisabz turizm va madaniy meros texnikumi tashkil etildi⁵². 2023-yilda ushbu texnikumni 111 ta talaba muvaffaqiyatli tamomlab, ularning 40 nafari suhbat asosida oliy ta'lim muassasalarida o'z mutaxassisliklari bo'yicha II kursdan o'qishga qabul qilindi. 71 nafari esa to'liq ish bilan ta'minlanib, Kitob geologik qo'riqxonasi, Hisor davlat qo'riqxonasi, mehmonxonalar, uy mehmonxonalari va restoranlarda faoliyat olib bormoqdalar. Shahrisabz turizm va madaniy meros texnikumi 70 ta korxonalar bilan shartnoma imzolagan bo'lib, talabalar amaliyotini tashkil etish va ularni ish bilan ta'minlash jarayonlarida ushbu korxonalar katta hissa qo'shib kelmoqda.

2024-yilda texnikumni 95 ta bitiruvchi talaba tamomladi⁵³.

Bugungi kunda texnikumda 11 ta shtat birligida o'qituvchilar faoliyat ko'rsatib, ularning 6 nafari katta o'qituvchilardir. Texnikum o'qituvchilari tomonidan 2023–2024-o'quv yilida 15 ta o'quv qo'llanma va 10 ta o'quv uslubiy majmua tayyorlangan⁵⁴. Texnikum kutubxonasining umumiy fondida 6221 ta kitob mavjud bo'lib, ularning 1955 tasi umumta'lim fanlarga, 3198 tasi umumkasbiy fanlarga,

⁵⁰ Shahrisabz turizm va madaniy meros texnikumi joriy arxivi materiallari.

⁵¹ Тоирова С. Бир ўқув масканида. // Кеш, 2005 йил 21 январь.

⁵² “Turizm, madaniy meros va muzeyshunoslik sohalarida malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–5270-sonli Qarori, 2021-yil 30-oktabr.

⁵³ Shahrisabz turizm va madaniy meros texnikumi direktori A. Akramxonov bilan suhbat. 2024-yil, 15-aprel.

⁵⁴ Shahrisabz turizm va madaniy meros texnikumi direktorining o'quv va tarbiyaviy ishlar bo'yicha o'rinbosari F. Rustamova bilan suhbat, 2024-yil, 15-aprel.

379 tasi o'quv uslubiy fanlarga doir bo'lsa, 477 tasi badiiy, 162 tasi siyosiy adabiyotlarni va 59 tasi SD disklarni tashkil qiladi⁵⁵.

Texnikum talabalari Qashqadaryoda o'tkazilib kelinayotgan turizm bo'yicha yarmarkalarda, festivallarda faol qatnashishadi va bu orqali o'z bilimlarini amaliyotda qo'llash imkoniga ega bo'lishmoqda.

Uchinchi bobning ikkinchi paragrafida *“Turizm sohasidagi muammolar va ularni bartaraf etish chora – tadbirlari”* yoritiladi. Shahrisabz tumanining “Navro‘z”, “Miraki”, “Oqdaryo” va “Hisor” hududlariga yiliga 500 mingga yaqin sayyohlar keladi. Lekin, yo‘l, mobil aloqa va internet, mehmonxona, umumiy ovqatlanish infratuzilmasi rivojlanmagani bois sayyohlar bir kunga kelib, ularga o‘rtacha 150 ming so‘mlik xizmat ko‘rsatilmoqda⁵⁶.

Xuddi shunday, Qamashida jahonda sanoqli va noyob bo‘lgan “Maydanak” observatoriyasi hamda XIV asr yodgorligi sanalgan “Langar ota” masjidi butun dunyodan turistlarni jalb qiladi. Biroq, ushbu obyektlarga olib boruvchi 38 km yo‘l ta‘mirtalab bo‘lganligi uchun (40 mlrd so‘m zarur) Maydanakning salohiyatini to‘liq ishga solib bo‘lmayapti⁵⁷.

Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumanidagi Tarag‘ay MFYga Turizm qishlog‘i maqomi berilgan. Tabiatan o‘ziga xos manzaraga ega bo‘lgan qishloqdagi holat biroz achinarli, sababi Tarag‘ay MFYga kirishdagi Navbahor va Xonqishloq guzarlarida aholi mazkur guzarda o‘zining me‘yoriy quvvatidan bir nechta ortiq xo‘jalikni elektr energiya bilan ta‘minlab turgan transformatorning nosozligidan norozi⁵⁸. Bu holda turizm qishlog‘iga turist qanday kelishi mumkin?

Ichki turizmni rivojlanishiga to‘siq bo‘luvchi omillardan yana biri transport tizimidir. Temiryo‘l transporti, aviaqatnovlar narxi ancha yuqori. Sayohat qilishni istagan insonlarning aksariyati yoshlar va pensionerlar, shuni hisobga olib ular uchun alohida chegirmalar yaratish lozim.

Turizm sohasida amalga oshirilishi mo‘ljallangan, ammo uning amalga oshishi faqat qog‘ozda qolib ketgan loyihalar ham anchagina. Jumladan, Qarshi – Shahrisabz yo‘lining ustida sal ichkariroq hududda joylashgan va xalq orasida “G‘oyibov dachasi” nomi bilan ataluvchi xushmanzara hudud hozir xaroba ahvolda, 2020-yil oktabrda Qashqadaryo viloyati hokimi mas‘ullar bilan yig‘ilish o‘tkazib, bu yerda “Chaman” turizm kompleksi barpo etilishi haqida topshiriq bergandi. Bu kompleksda 100 dan ziyod xizmat turlari faoliyati yo‘lga qo‘yilib, xorijiy va mahalliy sayyohlar bilan gavjum joy bo‘lishi haqida aytilgan edi, biroq bu ish hanuzgacha amalga oshirilmadi.

Viloyatda turizm va yondosh sohalardagi mavjud muammolar va ularning yechimi bo‘yicha quyidagi takliflarni keltirib o‘tamiz:

Muammo: Viloyatda turistlarning qolish muddatini 1,5-2 kundan 3,5-4 kunga uzaytirish, turizm salohiyatini targ‘ib qilish va sayyohlar oqimini oshirish lozim.

⁵⁵ Shahrisabz turizm va madaniy meros texnikumi kutubxonasi xodimi N. Sultonova bilan suhbat, 2024-yil, 15-aprel.

⁵⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining xizmat ko‘rsatish sohasini takomillashtirish bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida so‘zlagan nutqidan, 2021-yil 14-dekabr.

⁵⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining xizmat ko‘rsatish sohasini takomillashtirish bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida so‘zlagan nutqidan, 2021-yil 14-dekabr.

⁵⁸ Haydarov S. Turizm qishlog‘i deb aytilgan hududda vaziyat yomon. Internet ma‘lumotlari. 2022-yil 21-iyul.

Yechim: Viloyat bo'yicha 2–4 kunlik turpaketlar ishlab chiqish hamda Buxoro va Samarqand viloyatlari turoperatorlari bilan birga turistlarni jalb qilish, viloyatning turizm salohiyatini ochib beruvchi targ'ibot materiallari (videorolik, tarqatma material)ni tayyorlash va ijtimoiy tarmoq, turistik palatfomalarga joylashtirish, turistlar tashrif buyuradigan maskanlarda 24/7 rejimida xizmat ko'rsatuvchi shoxobchalar ro'yxatini shakllantirish, "Kashkadarya travel.uz" saytini takomillashtirish va mazkur platformaga turizm salohiyatiga oid ma'lumotlarni muntazam joylashtirish, Shahrisabz tumanidagi "Hisor" va G'uzor tumanidagi "Pachkamar" suv omborlari hududida turizm, motorli qayiqda sayohat qilish, ko'ngilochar, savdo, ovqatlanish xizmatlarini ko'rsatish choralari ko'rish, basseyn, akvapark, cho'milish va plyaj xizmatlarini tashkil etish istagida bo'lgan tadbirkorlik subyektlariga 5 yil muddatga imtiyozli bank kredit mablag'lari ajratish, viloyatdagi mavjud suv omborlari muhofaza hududlarini qayta o'rganib, turizm sohasidagi tadbirkorlik subyektlariga qo'shimcha bo'sh turgan yer maydonlarini "E-AUKSION" platformasiga joylashtirish choralari ko'rish lozim bo'ladi.

Muammo: viloyatning tog' va tog'oldi hududlarida turizm xizmat ko'rsatish obyektlarini qurish uchun yer maydonlari ajratish mexanizmini soddalashtirish.

Yechim: turizm sohasida umumiy qiymati 1 mln. dollardan kam bo'lmagan investitsiya kiritgan taqdirda investorga 3 yil muddatda bo'lib to'lash sharti bilan bitim asosida yer maydonlari ajratish yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga taklif kirish lozim.

Muammo: Shahrisabz tumani Hisor tog' yon bag'irlarida joylashganligi sababli ushbu hududda ekoturizmni uchun qulay hisoblanadi. Tumanning Miraki, Amir Temur, Hisorak, Ko'l, G'ilon (etno qishloq), Sayyod va Suvtushar qishloqlari so'lim tabiati va qadimiy ko'rinishi turistlarni o'ziga jalb qiladi. Mazkur hududlarda ekstremal, rafting, tog', trekning va etno turizm turlarini rivojlantirish lozim.

Yechim: Yakkabog' tumani Kattaqo'rg'on qishlog'ida trekning hamda Shahrisabz tumani "Ko'l" MFY hududi daryo o'zanlarida rafting sport tadbirlarini tashkil qilish mumkin bo'ladi.

Muammo: Viloyatda qo'riqxonalar va o'rmon xo'jaliklari hududida eko, rafting, dam olish maskani, zeplayn, osma dor yo'li va ov turizmini rivojlantirish uchun imkoniyatlardan to'liq foydalanishni tashkil qilish.

Yechim: Qashqadaryo viloyatining qo'riqxonalar va o'rmon xo'jaliklarida turistlarga xizmat ko'rsatuvchi obyektlar tashkil etish yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish zarur.

Muammo: Kitob tumanidagi "Kitob geologiya tabiat milliy bog'i" va unga tutash hududda xorij tajribasi asosida geobog' (geopark) tashkil qilish salohiyatidan foydalanish.

Yechim: Xorij tajribasi asosida Qashqadaryo viloyatining "Kitob geologiya milliy tabiat bog'i" va unga tutash hududlarni o'z tarkibiga olgan "YUNESKO Global geobog'lar tarmog'i"ga kiruvchi geobog' (geopark) tashkil qilish bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish lozim deb hisoblaymiz.

XULOSA

“Mustaqillik yillarida Qashqadaryoda turizm sohasining shakllanishi hamda rivojlanishi: istiqbollar va muammolar” mavzusidagi dissertatsiya ishi bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Bugungi kunda mamlakatimizning turizm faoliyati sohasida xalqaro hamkorlikni, birinchi navbatda, BMT, Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO), xorijiy mamlakatlarning turizm bo'yicha nufuzli xalqaro hamda milliy tashkilotlari, turizm xizmatlari mintaqaviy va jahon bozorlarining faol ishtirokchilari bilan hamkorlikni kengaytirish, O'zbekistonda turizm sohasini tartibga soluvchi universal xalqaro konvensiyalar va bitimlardagi ishtiroki, turizm faoliyati amaliyotiga xalqaro hamda davlatlararo standartlar va normalarni joriy qilish kabi vazifalarning belgilanganligi mamlakatimizning xalqaro turizm bozoriga jadal kirib borishini ta'minlab berdi. Ushbu faoliyatlar natijasida mamlakatimizda turizm faoliyati sezilarli ravishda rivojlana boshladi.

2. Mustaqillik yillarida O'zbekistonning turizm va madaniy merosni umumxalq, umuminsoniy ahamiyatga ega qadriyatlar darajasiga ko'tarish yo'lida qator tarixiy hujjatlar imzolangan bo'lsa, keyingi yillarda xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga ega bir necha g'oya va takliflar davlat rahbari tomonidan ilgari surildi va qisqa payt ichida amaliyotga tatbiq etilib, barcha tomonlar va ishtirokchilar manfaatli bo'ladigan xalqaro va mintaqaviy hamkorlik, kooperatsiya, aniq ishtirokchi davlatlar bilan bir qatorda butunlay boshqa uzoq-yaqin davlatlar uchun ham investitsion jozibador bo'lgan g'oya va takliflar qo'llab-quvvatlandi. O'zbekistonning boy o'tmish va turfa an'analaridan kelib chiqib, katta istiqbolga ega etno, eko va geoturizm, gastronomik va etnografik, tibbiy turizm kabi yo'nalishlar bo'yicha mazkur jahon sayyohlik tashkiloti doirasida birgalikda qo'shma loyihalarni ishlab chiqib, hayotga joriy etish.

3. Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalar sifatida Shahrisabz shahrida Respublika bo'ylab faoliyat olib borayotgan san'at vakillari orasida “Maqom anjumani” hamda turli yangi zamonaviy ko'rinishdagi festivallarni tashkil etgan holda Shahrisabz shahrini Festivallar shahriga aylantirish, Kitob tumanidagi Xo'ja Imkanagiy ziyoratgohi, Mirishkor tumani Pomiq qishlog'idagi Isoq ota majmuasi, G'uzor tumani G'uzor shahridagi “Musofir ota” ziyoratgohini va turizm obyektlariga olib boruvchi jami 83 km yo'l va yo'l bo'yi infratuzilma investitsiya dasturiga kiritildi.

4. Viloyat turizm salohiyatidan samarali foydalanish maqsadida Varganza, Hazrati Bashir, G'ilon, Suvtushar qishloqlarida yangi turizm yo'nalishlari tashkil etildi, Kitob kenglik stansiyasi, Siypantosh yodgorligi va uning atroflarida turistik maskanlar barpo etilishga kirishildi, viloyat bo'yicha 265 ta mehmon uylari tashkil etilib, ularning faoliyati yo'lga qo'yildi.

5. Qashqadaryo viloyatida islom olamida tan olingan allomalarning maqbaralari, tabarruk qadamjolar ko'p. Hozirgi davrda dunyoda turizm yo'nalishi ustuvor sohaga aylangan bir vaqtda, viloyatdagi tabiiy, ma'naviy, madaniy va moddiy merosimiz bilan bog'liq ziyorat turizmi salohiyatini rivojlantirish u yerga mahalliy aholi bilan birga, xorijiy turistlarni ham jalb qilish davlatimiz

istiqbolini belgilaydi. Bu hududlarda ziyorat turizmini rivojlantirishda ichki, milliy mintaqaviy va mahalliy sayyohlikning ahamiyati katta. Biroq mamlakatimiz, jumladan, Qashqadaryo viloyati turizm sohasida ulkan salohiyatga ega bo'la turib, uzoq yillar bu imkoniyatdan to'liq va samarali foydalanilmadi.

6. Turizm sohasida kadrlar tayyorlash mazkur soha taraqqiyoti uchun hal qiluvchi omillardan biri sanalib, ushbu sohada xizmat qiluvchi xodimdan aqliy salohiyat bilan birgalikda namunali muomala madaniyati, xorijiy tillarda ravon gapirish qobiliyati, o'tkir zehn, tadbirkorlik ruhiyatiga ega bo'lish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalana olish, shuningdek, o'z ishiga mas'uliyat kabi xislatlar talab etiladi. Agar mana shunday fazilatlarga ega bo'lgan xodimlar yetarlicha bo'lsa, ana shunda turizm sektori shiddat bilan rivojlanadi. Keyingi yillarda ta'lim sohasida qilinayotgan o'zgarishlardan ayni shu maqsad ko'zlangan va bu ishlar yaqin yillarda o'z samarasini ko'rsatmay qolmaydi.

7. Shahrisabz shahrining turizm salohiyati va imkoniyatlaridan samarali foydalanish, viloyatda turistlarning qolish muddatini 1.5–2 kundan 3.5–4 kunga uzaytirish, turizm salohiyatini targ'ib etish va sayyohlar oqimini oshirish, viloyatning tog' va tog' oldi hududlarida turizm xizmat ko'rsatish obyektlarini qurish uchun yer maydonlari ajratish mexanizmini soddalashtirish, Shahrisabz tumani Hisor tog' yonbag'irilarida joylashganligi sababli ushbu hududda ekoturizm uchun qulay hisoblanib, Miraki, Amir Temur, Hisorak, Ko'l, G'ilon (etno qishloq), Sayyod va Suvtushar qishloqlari so'lim tabiati va qadimiy ko'rinishi turistlarni o'ziga jalb etishini hisobga olib, ushbu hududlarda ekstremal, rafting, tog', trekking va etno turizm turlarini rivojlantirish, viloyatda qo'riqxonalar va o'rmon xo'jaliklari hududida eko, rafting, dam olish maskani, zelayn, osma dor yo'li va ov turizmini rivojlantirish uchun imkoniyatlardan to'liq foydalanish, Kitob tumanidagi "Kitob geologiya tabiat milliy bog'i" va unga tuman hududida xorij tajribasi asosida geobog' (geopark) tashkil qilish salohiyatidan foydalanishni muammo sifatida ko'rsatib o'tildi.

Tadqiqotda tahlil etilgan masalalardan kelib chiqqan xulosalar asosida quyidagi **taklif** va **tavsiyalar** ishlab chiqildi:

Ichki turizmni yanada rivojlantirish uchun Qashqadaryo viloyati ziyoratgohlarining yo'l ko'rsatkichlarini tashkil qilish;

Shahrisabz tumani Hisor tog' yonbag'irilarida joylashganligini hisobga olib, Miraki, Amir Temur, Hisorak, Ko'l, G'ilon, Sayyod va Suvtushar qishloqlarida ekstremal, trekking va etnoturizm turlarini rivojlantirish lozim;

Qashqadaryo viloyatida qo'riqxonalar va o'rmon xo'jaliklari hududida eko, rafting, dam olish maskani, zelayn, osma dor yo'li va ov turizmini rivojlantirish uchun imkoniyatlardan to'liq foydalanishni tashkil qilish zarur.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/27.02.2021 Tar.70.05 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
КАРШИНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

КАРШИНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

РАСУЛОВА МАТЛУБА АБДИМУМИН КИЗИ

**ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ ТУРИСТИЧЕСКОЙ СФЕРЫ
КАШКАДАРЬИ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ:
ПЕРСПЕКТИВЫ И ПРОБЛЕМЫ**

07.00.01. – История Узбекистан

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) по
ИСТОРИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Карши – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по историческим наукам зарегистрирована в Высшей Аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В 2023.1.PhD/Tar.1338.

Диссертация выполнена в Каршинском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-сайте Научного совета (www.qarshidu.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:	Хасанов Акрам Муминович доктор исторических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Хушваков Наби Олимович доктор исторических наук Сафаров Саиб Бердиевич доктор философии (PhD) по историческим наукам
Ведущая организация:	Шахрисабзский государственный педагогический институт

Защита диссертации состоится «_____» _____ 2025 года в _____ часов на заседании Научного совета PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 по присуждению ученых степеней при Каршинском государственном университете (Адрес: 180119, г. Карши, ул. Кучабог, 17. Тел.: (+998 75) 221-21-04, faks: (+998 75) 220-02-10, e-mail: kasu_info@edu.uz). Каршинский государственный университет.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каршинского государственного университета (зарегистрирована под № _____). (Адрес: 180119, г. Карши, ул. Кучабог, 17. Тел.: (+998 75) 221-21-04).

Автореферат диссертации разослан «_____» _____ 2025 года
(протокол реестра № _____ от «_____» _____ 2025 года.)

Б.Ж. Эшов
председатель Научного совета
по присуждению ученых степеней,
д.и.н., профессор

Н.Н. Ражабова
ученый секретарь Научного
совета по присуждению ученых
степеней, к.и.н., доцент

Ю.А. Эргашева
председатель научного семинара
при Научном совете по
присуждению ученых степеней,
д.и.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В условиях ускоряющихся процессов глобализации сфера туризма, как одна из важных отраслей национальной экономики, требует особого внимания. Экономическое, социальное и культурное значение туризма, его роль в развитии международного сотрудничества и стратегические задачи в формировании национального имиджа требуют проведения последовательных реформ в этой сфере. Мировой опыт показывает, что Всемирная туристская организация (ЮНВТО) уделяет особое внимание вопросам устойчивого развития современных направлений, таких как экотуризм, горнолыжный туризм, экстремальный, паломнический и гастрономический туризм. В частности, международные институты ООН, такие как ЮНЕСКО и ЮНВТО, оценивают развитие внутренних и внешних видов туризма как важный фактор экономического развития стран и межкультурной интеграции.

В научно-исследовательских институтах и центрах таких государств, как США, Германия, Франция, Италия, Россия, Япония, Турция, Малайзия, Сингапур, Саудовская Аравия, осуществляются многочисленные научные исследования, посвященные развитию туризма, изучению проблем в этой сфере, определению перспектив туризма. Особенно актуальным является расширение внутреннего и внешнего туризма, паломнического туризма, историко-культурного туризма, экотуризма, природного туризма, экопарков и эко-агротуристических центров, а также разработка однодневных и многодневных туристических маршрутов.

В условиях нового Узбекистана осуществляется ряд реформ в области дальнейшего развития экономики туризма в стране, организации туристских зон и центров горного туризма и повышению эффективности их использования, достигаются значительные положительные результаты. Превращение туризма в стратегическую отрасль экономики остается для нас приоритетной задачей. Одной из важнейших задач, стоящих перед правительством, является увеличение числа туристов, приезжающих в нашу страну, до 9 миллионов в ближайшие годы¹. С этой точки зрения определение туристических возможностей Узбекистана, анализ факторов развития туризма и расширения отрасли, а также необходимость проведения научных исследований, посвященных организации туристских направлений определили актуальность темы настоящего исследования.

Настоящее диссертационное исследование в определенной мере служит выполнению задач, намеченных в Указах и Постановлениях Президента Республики Узбекистан ПФ-5328 от 3 февраля 2018 года «О дополнительных организационных мерах по созданию благоприятных условий для развития туристского потенциала Республики Узбекистан», постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан № 198 от 8 марта 2021 года «О мерах по

¹ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. (Стратегия развития Нового Узбекистана). – Toshkent: O'zbekiston, 2022. – Б. 170.

эффективному использованию туристского потенциала Кашкадарьинской области», ПФ-6165 от 9 февраля 2021 года «О мерах по развитию внутреннего и паломнического туризма Республики Узбекистан», Постановления Кабинета Министров Республики Узбекистан № 74 от 16 февраля 2021 года «О мерах по благоустройству и комплексному социально-экономическому развитию центров Гузарского и Яккабагского районов Кашкадарьинской области в 2021-2023 годах»², № 112 от 1 марта 2021 года «О мерах по дальнейшей поддержке и развитию туристической отрасли в Кашкадарьинской области»³, ПФ-60 от 28 января 2022 года, «Стратегия развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы»⁴, Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан № 100 от 24 февраля 2021 года «О дополнительных мерах по развитию внутреннего и паломнического туризма»⁵ и других нормативно-правовых актах, относящихся к данной сфере деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Настоящее исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей социального, правового, экономического, культурного, духовно-просветительского развития информационного общества и демократического государства и пути ее реализации».

Степень изученности проблемы. Тема «Формирование и развитие туристической сферы в Кашкадарье в годы независимости: перспективы и проблемы» до сих пор не была изучена в качестве отдельного исследования и как проблема. Историческую соответствием изучаемой темы можно условно разделить на 2 группы.

В литературе первой группы подвергнуты общему анализу вопросы, связанные с разработкой концептуальных основ нашего историко-культурного наследия, учетом историко-культурного наследия, научным изучением истории архитектурных памятников и мест поклонения, пропагандой туризма. В частности, монографии, брошюры, исследования коллектива таких авторов, как У. Увватов, П. Равшанов, А. Чориев, У. Мавлонов, И. Райхонов, Ш.Ашурова, А.Хасанов, А. Жуманазаров, О. Буриев, И. Даминов, С. Окилов, К. Насриддинов, Ж. Авлиёкулова, М. Назаров, Х. Жумаев, Н. Хушваков, Р. Ихсанов, И. Даминов, И. Холиёров, М. Казакбаев, И. Усмонов, Н. Ахмедов,

² Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан № 74 от 16 февраля 2021 года «О мерах по благоустройству и комплексному социально-экономическому развитию центров Гузарского и Яккабагского районов Кашкадарьинской области в 2021-2023 годах». «Халқ сўзи», 2021 йил 17 февраль.

³Постановления Кабинета Министров Республики Узбекистан № 198 от 8 марта 2021 года «О мерах по эффективному использованию туристского потенциала Кашкадарьинской области» и № 112 от 1 марта 2021 года «О мерах по дальнейшей поддержке и развитию туристической отрасли в Кашкадарьинской области». «Халқ сўзи», 2019 йил 9 март, 2021 йил 2 март.

⁴ «Стратегия развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы, ПФ-60 от 28 января 2022 года.

⁵ Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по развитию внутреннего и паломнического туризма» № 100 от 24 февраля 2021 года.

Н. Эшпулатов, Ш. Шаропов и других⁶, значимы тем, что содержат некоторые сведения по исследуемому вопросу.

